



ZAHİRƏDDİN MƏHƏMMƏD BABUR

ZAHİRİDDİN MUHAMMAD BOBUR

**Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası
Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu**

**Özbəkistan Respublikasının
Azərbaycan Respublikasındakı Səfirliyi**

**ZAHİRƏDDİN MƏHƏMMƏD BABUR
VƏ
AZƏRBAYCAN**

Görkəmli dövlət xadimi, ensiklopedik alim və şair Zahirəddin Məhəmməd Baburun anadan olmasının 538 illiyi münasibətilə 12 fevral 2021-ci ildə keçirilən beynəlxalq konfransın

M A T E R İ A L L A R I

2021

“BOBURNOMA” TARJIMALARIDA PAREMIYALARNING IFODALANISHI

Dilafro‘z MUHAMMADIYEVA

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Boburnoma”ning tarjimalari haqida yaxlit, mukammal tadqiqot olib borilmagan. Ammo bir necha tadqiqot ishlarida ayrim ma’lumotlar uchraydi. O‘zga tillarga qilingan tarjimalarning saviyasini aniqlash, ularni o‘zaro qiyoslab o‘rganish orqali asarning ilmiy qimmatini belgilash o‘zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Zero, “Boburnoma” dunyo sharqshunoslari yakdillik bilan qayd etganlaridek, insoniyat madaniyatiga qo‘shilgan katta ulush hisoblanadi. “Boburnoma”ning so‘nggi mukammal ilmiy-tanqidiy matnlari yaponiyalik olim E.Mano (1995) va S.Hasanov (2002) nashrlari hisoblanadi. “Boburnoma” tarjima va qo‘lyozmalari haqida N.Otajonov va D.Hoshimova hammuallifligida nashr etilgan “Boburnoma” sharq elchisi” nomli risolada keng ma’lumotlar berilgan. “Boburnoma” dunyoning 18ta tiliga tarjima qilingan va 2ta tilga (major-venger va turkman tillari) tarjima qilish jarayonlari davom etmoqda. “Boburnoma”ning Ozarbayjon tilida ikkita tarjimasini mavjud bo‘lib, Ramiz Asker tomonidan qilingan tarjima Bokuda ikki marta nashr etilgan. Ushbu tarjimada (2011) “Boburnoma”ning turkcha (R.R.Arat), ruscha (M.Sale) va o‘zbek-



cha (Porso Shamsiyev) nashrlaridan foydalanilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif Bobur mirzoning shaxsiyati, hayoti va ijodi haqida batafsil to'xtaladi. Bobur hamma narsa haqida ob'ektiv va xolis yozgan. O'ziga zamondosh va o'zidan avval yashab o'tgan hukmdorlar, ularning avlodlari, hayoti, fe'l-atvori, janglari va masofaviy urushlari, xotinlari va kanizaklari, o'g'il-qizlari, amirlari va beklari, saroyida yashagan olimlar, shoirlar, rassomlar, musiqachilar, hattotlar va boshqa san'atkorlarni nomma-nom sanab o'tgan va ular haqida keng va qiziqarli ma'lumotlar bergan. U borgan joylaridagi tarixiy obidalar, turli xalqlar, qabilalar va urug'larning etnografik xususiyatlari, urf-odatlar, kiyim va yemaklar uning e'tiboridan chetda qolmagan. Bobur tabiatning go'zalliklarini, turli jo'g'rofiy hududlarda o'sadigan daraxt va gullarni, meva va o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni ham ayni hassoslik va e'tibor bilan tasvirlagan .

Tarjimada har bir shaxs, har bir joy yoki muhim tarixiy voqealar alohida sarlavhalar bilan ajratib berilgan. Asar shu qadar kichik tasniflarga bo'linganki, ba'zi sarlavha ostidagi voqealar bir betgayam bormaydi. Masalan, "Sulton Mahmud mirzoning Samarqand taxtiga chiqmog'i" (40-b) yoki "Boysunqur mirzoning Samarqand taxtiga chiqmog'i" (47-b) bo'limlari yarim betdan, "Boysunqur mirzoning Xisravshoh tarafidan o'ldirilmog'i" (85-b) bo'limi 7 qatordan iborat. Sarlavhalarning umumiy miqdori 153 ta. Tarjima o'zbekcha va turkcha matnga asoslanganligi uchun voqealar izchil yoritilgan, tushib qolgan yoki berilmay o'tib ketilgan holatlar yo'q. Ammo asarning so'nggi 936-yil voqealari 935-yil voqealariga qo'shib yuborilib, shu bilan yakunlangan. Tarjimaning umumiy hajmi 424 betni tashkil qiladi. Tarjimada maqol va matallar matn ichida asl manbadagidek yozilgan, havolada hozirgi Ozarbayjonchada qanaqa ma'no anglatishi berilgan. Masalan: "Deh koca və dərəxtan koca" mäsəlini, deyəsən, Axsı üçün söyləmişlər. ("Deh kujo

va daraxton kujo” masalini Axxi uchun aytilganga o‘xshaydi. – tarjima bizniki- D.M.) matn tagidagi izohda esa Kənd harada, ağaclar harada (qishloq qayerda, daraxtlar qayerda, - tarjima bizniki-D.M.) deb izoh berilgan. Misollar: Zikri nomero hakimon umri soniy guftand ((b.142.)– Həkimlər adın yad edilmə-sini ikinci ömür saymışlar.(b.199); teng bo‘lmaguncha to‘sh bo‘lmas (b.115.) – dəng olmayan tuş olmaz (b.155); Kim o‘lar holatga yetsa, ul bilur jon qadrini (b.218.) – Kim ölər həlakətə yetse, ol bilir can qədrini (b.321); Agar sad solmoni va-r yake ro‘z, Biboyad raft az in koxi dilafro‘z (b.99.)– İstər yüz il, istər bir gün qal, Bu könül aydınladan köşkü tərək edəcəksən (133); Ne bormoqqa yere muqarrar, Ne turmoqqa yurte muayyan (b.160.) – Nə getmək üçün qərar verilmiş bir yer,nə də durmaq üçün müəyyən bir yurddarı. “Boburnoma”nig ozarbayjoncha tarjimasi izohlarga boy, ularning asosiy qismi satr ostida berilgan, diqqatga sazovor joyi shundaki, izohlarda turkcha, ruscha va o‘zbekcha nashrlar o‘rtasidagi farqlar ochib berilgan. Asar so‘nggida tushunarsiz so‘z va iboralarga ta’rif berilgan. Bu haqda tarjimonning o‘zi shunday yozadi: Bu qaydlar va izohlar “Boburnoma”ning turkcha, o‘zbekcha va ruscha nashrlarida berilgan izohlar va ba’zi ma’lumot-so‘roq manbalari asosida tuzilgan. Biz tarjima mobaynida matn osti hoshiyada ba’zi terminlarning ma’nosini izohlagan, shaxslar, geografik hududlar va boshqalar haqida biroz tushuncha bergan edik... Shunga ko‘ra, bu yerda ba’zi ifoda va terminlarni keng shaklda izohlashni ma’qul ko‘rdik. “Boburnoma” qozoq tiliga Bayuzaq Qojabekuly tomonidan 1990 yilda “Baburnama” nomi bilan tarjima qilinadi. Bu tarjima o‘zbekcha tanqidiy matn va ruscha tarjima asosida qisqartirilgan holda bosilgan. Keyingi 1993 yilda to‘liq tarjima shaklida nashr etilgan, ammo ism ko‘rsatkichlari va geografik nomlar xaritasi tushirib qoldirilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif Bobur va uning hayoti,

“Boburnoma”ning badiiyati va tarkibiy qismlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Qozoqcha tarjimada voqealar juda kichik-kichik mavzularga bo’linib berilgan. “Boburnoma”dagi aforizmlar, g’azallardan parchalarni Orazaqyn Asqar qozoqchaga tarjima qilgan. Nashrni kuzatish mobaynida paremiyalarning o’g’irilishidagi o’ziga xoslikni aniqladik. Muallif maqollarni so’zma-so’z o’g’irmaydi, hozirgi qozoqchada mavjud bo’lgan ekvivalentini qo’llash yo’lidan boradi. E’tibor bersak, ikkinchi maqolning muqobili aynan Bobur aytmoqchi bo’lgan fikrni ifodalagan. Chunki Bobur do’stining xoinligini ta’kidlamog’chi, qozoqchada esa atrofning xatarlarga to’la ekanligiga urg’u qaratilgan. Holbuki, tarjimon aslyatda berilgan maqollarning tarjima tilida mavjud muqobillarini izlashi, ularni saralashi hamda muqobili mavjud bo’lmaganlarini esa qisqa va lo’nda izohlar orqali ifodalashi lozim. Misollar: Qopudag’ini qopmasa, qarig’uncha qayg’urur (b.74) – Өz ayag’ymen kelip, qolyмыzg’a t’yskeli t’yr’g’an jau yesh shyg’ymсыз, jylystap ketti.(95), Korhoro bavaqt boyad just, Kori bevaqt sust boshad sust (b.74) – Der kezinde bitken is paydalысы, Ky’ni Өtken so’ң bolmaydy jay-mәnisi (95), Uzrash batar az gunoh (b.78) – Оның aqтал’аны qылмыстан da jaman (102), Lazzati may mast donad, hushyoron chi haz (b.108.) – Mas bileди sharapтың tәtti dәmin, Tatpag’andy demeydi ol shat qylyamyn yemes jaman yeger. Ko’rinadiki, tarjimon maqollarni tarjima qilish jarayonida o’z tilida mavjud bo’lgan ekvivalentini qo’llash metodidan foydalangan, biroq tanlangan bu metod o’zini u qadar oqlamagan. Buning oqibatida, “Boburnoma”ning asl ifoda uslubi buzilgan, tasviriylik aks etmagan. Bu holatni gap tuzilishlarining o’zgartirilganligida ham ko’rish mumkin¹⁵⁷.

¹⁵⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” – Toshkent, 2002. ; Otajonov N., Hoshimova D. «Boburnoma» – sharq elchisi. – Toshkent, 2010 ; Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Çeviren Ramiz Askar. 2-naşr. – Bakı, 2011.;

KİTABIN İÇİNDƏKİLƏR

İsa Həbibbəyli. Zahirəddin Məhəmməd Babur, “Baburnamə” və müasir dövr.....	5
Baxrom B.Ashrafxanov. Buyuk hukmdor, ijodkor, shoir va yozuvchi Zahiriddin Muxammad Bobur.....	9
Amanulla Ceyhun. Classic of world literature and statesman: Zahiruddin Muhammad Babur.....	12
Almaz Ülvi Binnətova. “Baburnamə”nin Bakı əlyazması nüsxəsinin təsviri və “Baburnamə”də Əlişir Nəvai haqqında.....	16
Hamidulla Boltaboev. Boburşoh va Boburiylar davrini aks ettirgan turk adiblarining tazkiralari.....	29
Рамиз Аскер. Феномен Бабура.....	38
Dilorom Salohiy. Shayx Nizomiy Ganjaviy va Zahiriddin Bobur Mirzo ijodida adabiy-estetik tamoyillar mushtarakligi.....	42
Mirzo Kenjabek. Zahiruddin Muhammad Bobur – buyuk fiqh olimi (“Mubayyan” asari fazilatları).....	51
Jabbor Eshonqulov. “Boburnomada” folklor üsurlari.....	66
Paşa Kərimov. Baburun rübailəri.....	73
Nurboy Jabborov. Bobur lirikasida milliy ruh ifodasi.....	80
Vahob Rahmonov. Bobur toshbitikləri.....	90
Akif Azalp. “Baburnamə”də Əlişir Nəvai şəxsiyyəti və obrazına dair.....	98
Yaşar Qasımbəyli. Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan klassikləri.....	104